



ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Til va adabiyot.uz

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературе – Language and literature teaching» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>

18-NOYABR O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BAYROG'I QABUL QILINGAN KUN



Abdulla ORIPOV,
O'zbekiston Qahramoni

O'ZBEKISTON DAVLATI



*O'zbekiston bayrog'i ko'tarildi chinakam,
Ushbu kunni ayting-chi, qay birimiz kutmadik.
Zarur bo'lgan chog'da goh dor tagida turib ham,
Qay birimiz tarixning sinovidan o'tmadik.*

*Dong'il safarga chiqdi endi hur O'zbekiston,
Kingadir oyoqosti, kimga u osmon bo'ldi.
Shukrim, o'z-o'zini tanidi keksa jahon,
Ya'ni o'zbek davlatin jumlai jahon bildi.*

*Ne-ne kamsituvlarni ko'rgan shu boshim bilan
Ona xalqim, qoshingda tizza bukib turibman.
O'zbekcha gapirganda, bir chuqum oshim bilan
Sadaqai baxting deb borim to'kib turibman.*

*Garchi doim ungandir gulchechaklar bog'imda,
Temur va Navoiyni eslaymiz takror-takror.
Men-ku uzoq yasharman, lekin ketar chog'imda
Tepamda egilajak o'z tug'im – bayrog'im bor!*

*Nasib etmish bu kunlar, taralsin yangroq unlar,
Do'stlar bilan yonma-yon qutlaylik bu ayyomni.
Iloyo boshimizga kelmasin qaro kunlar,
O'zbekim, deb ko'taring, do'stlarim, oltin jomni.*

1992 -yil 4 -mart.



ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Til va adabiyot. uz

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Dilshod Kenjayev
Nizomiddin Mahmudov
Yorqinjon Odilov
Jabbor Eshonqulov
Baxtiyor Daniyarov
Abdurahim Nosirov
To'liqin Saydaliyev
Barno Buranova
Zulxumor Mirzayeva
Qozoqboy Yo'ldoshev
Salima Jumayeva
Qayum Baymirov
Manzar Abdulxayrov
Alijon Safarov
Madina Nuriddinova
Latifa Xudayqulova
Barno Kadirova
Nargiza Mirzayeva
Guli Shukurova
To'maris Butunbayeva
Ramziddin Abdusatorov
Okila Turakulova

Axborot hamkorimiz:



Muharrirlar:

Lutfullo JO'RAYEV
Bibimariyam RAHMONOVA
Oydin SHUXRATOVA

Sahifalovchi:

Mahliyo ABDUQODIROVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45, (71) 233-03-67.
e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com

M U N D A R I J A

Bir g'azal sharhi

Manzar Abdulxayr. Fido jonimni aylab.....3

Tadqiqot

Okila Turakulova, Hamid Ergashev. Shoir shaxsi va ijodiga xos samimiyat 6

Madina Daliyeva. Tilshunoslikda termin tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlari..... 8

Maxsuda Karimova. Milliy folkloristikamizning fidoiy vakili..... 11

Rushana Nabiyeva. Yangi o'zlashayotgan taom nomlari xususida 13

Pulat Fozilov. Ingliz va o'zbek tillari sistemasida fiziologik holat fe'llarining o'rni..... 16

Sevara Yoqubova. Anonim xatlarda unli harflar imlosining shaxs yosh xususiyatiga ko'ra xoslanishi 19

Manzura Shamsiyeva. Badiiy matnda peyzaj birliklari: tadqiqotning zamonaviy yo'nalishlari va istiqbollari..... 22

Nilufar Toshpo'latova. Emotsional-ekspressiv munosabat ifoda etuvchi frazemalar tahlili..... 24

Tursunoy Yandashova. Go'zallik konseptining nazariy-metodologik asoslari..... 28

Dilfuza Shomalikova. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning psixologik asoslari 31

Dilfuza Kamoljonova. Xorijiy tajribalar asosida o'quvchilarning mutolaa kompetensiyasini rivojlantirish..... 33

Xikmat Xikmatov. Junaydillo Hoziqning lirik she'rlarining g'oyaviy mazmuni 34

Gulruh Ne'matova. "Правда востока" gazetasi va "Uzbekistan.travel.com" saytidagi materiallarning tili, uslubi, janrlari.... 38

Sayyora Kurolova. Qolip konstruksiyalarining murakkab gaplarda qo'llanilish mezonlari..... 40

Nuriddin Dosanov. O'zbek tilida izohlovchining o'rni..... 42

Zilola Sayitqanova. Oilaviy munosabatlarning o'zbek va ingliz tilidagi mikrokonseptlari 44

Shahnoza Rasulova. Hofiz va shoirning adabiy hamkorligi..... 46

Dilrabo Qodirova. Konchilik terminologiyasi tizimida o'zlashtirilgan terminlarning lingvistik va ekstralingvistik jihatlarini 49

Manzura Pirnazarova. Omon Matjon ijodi Suvon Meli talqinida..... 51

Usenova Venera. Ingliz ertak matnlarida mifologemalarning gavdalanishi 54

Nargis Kudratxodjayeva. Eng kichik ma'no birliklari haqida 56

Omadjon Azamov. Zoofragmalarning leksik-grammatik tahlili..... 58

Kamola Haydarova. O'zbek, rus va ingliz tillarida jiyda leksemasining lingvokulturologik xususiyatlari..... 60

Gulnoza Shodiyeva. Training as a method of teaching intercultural competence..... 62



Ilmiy-metodik elektron jurnal

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 338/6-sonli qarori bilan Filologiya hamda Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrdir. <https://oak.uz/pages/4802>

Sayyora Abdurashidova. The contibution of some foreign prefixoids in word formation	64
Ug'iloy Bolbekova. The role of innovative technologies in teaching english	66
Muhayyo Mo'minova. The intericate tapestry of linguistic culture: a comparative analysis of english and uzbek.....	69
Nigina Akhmedova. Authentic materials and their features of the formation of sociocultural competence in theaching and learning	71
Diyora Madjidova. Interactive methods and modern approach in organizing the communicative english lesson	73
Yulduz Sultonova. Features of translation of english zoocomponent phraseological units into uzbek	75
Muborak Sagatova. The analysis of conceptual metaphor in media advertisement	76
Sitora Xasanova. The interplay od language and culture in literary concepts: a linguo-cultural perspective	78
Firuz Xusainova. The role of lifelong lerning for people of the third age	80
Diana Abduramanova. Lexical innovation and meta-semantic analysis: the influence of fiction on the creation and adaptation of invented words in a metalinguistic context	84
Nodiraxon Karimova. Наш язык, наша культура	88
Diana Ruzmetova. Интеграция искусств и креативных методов в преподавание английского языка: разработка мультимодальных уроков для стимуляции языкового развития	90
D.A.Ubaydova. Ги Де Мопассан - великий романист французской литературы.....	93
Shaxnoza Tursunova. Проблема изучения неполных предложений в языкознании	96
Muxiba Arabova. Методика обучения русскому языку и культуре речи инофонов среднего и продвинутого этапов обучения по материалам аутентичных медиатекстов	98
Mashxura Xafizova. Эффективность применения игровой педагогической технологии в вузе	100
Elyanora Xalikova. Бухарские реалии в рассказе Омона Мухтара «Птицы и сны»	102
Farida Umarova. Обозначение времени на часах. Распорядок дня.....	106
S.S.Ibragimova. Один автор подписывается более чем одним псевдонимом	110
Otabek Yuldashev. O'zbek shevalaridagi xalq maqollarining semantik tuzilishi va lingvistik-madaniy tasnifi.....	113
Tahlil	
Umida Djalilova. Tarjimada til va uning madaniy masalalari	116
Sanobar Kamolova. O'zbek antroponimlarining milliy-madaniy qirralari	118
Xurshida Baratova. "Boburnoma"da mehribon ona tasviri.....	120
Surayyo Qurbonova. O'zbek va ingliz tillarida "vaqt" zamon ko'rsatkichining qiyosiy tahlili.....	122
Metodik tavsiya	
Rayxona Tillayeva. Adabiy darslarini noan'anaviy shakllarda tashkil etish usullari.....	126
Saodat Kambarova, Karlygash Ashirkhanova. Adabiyot darslarida "muallif nuqtayi nazari"ni o'rgatish tajribasidan	128
R.X. Niyozmetova. Adabiy matn va mustaqil fikrlash	130
Gulnora Yaxyoyeva. Nemis tili darslarida talabalarning ijodiy faollik xususiyatini takomillashtirish.....	132
Mo'tabarxon Bahridinova. Raqamli texnologiyalarning nemis tilini o'qitishdagi ahamiyati	134
Tilshunoslik	
Malika Rajapova, Alijon Mamajonov. Allegoriyaning tasavvufda ishlatilishi.....	137
Nodirakhon Khatamova. The intersection of language acquisition and global consciousness in esp education	139
Bayramali Kilichev. Buxoro toponimlarida rabot komponentining o'rni	141
Rohila Suvonova. Joy nomlari bilan bog'liq metonomiya.....	143
Nurbek G'aniyev. Qiziltepa tumani toponimiyasining lug'aviy asoslari	145
Qodirjon Mo'ydinov. Yuridik til leksikasining mavzuiy guruhlari.....	147
Aziza Ayaqulova. Tibbiyot sohasiga oid terminlarning qiyosiy tipologik tadqiqi.....	149
Gulshoda Begimova. Linguistic description of the lexical level and its learning status.....	152
Nurbek Ayaqulov. Muayyan sohaviy terminologik tizimlarda turkumlashtirish masalalari.....	154
Mulohaza	
Arofatoy Muydinova. O'zbek adabiyotida muvashshahlarga doir adabiy munozaralar.....	157
Kichik tadqiqot	
Sarvinoz Rasulova. Sabr va sadoqat saltanatining so'nmas malikasi Zulfiyaxonim.....	158
Mavluda Mirzayeva. Chet tili darslari jarayonida kasbga yo'naltirib o'qitish orqali talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini takomillashtirish	160
Mohidil Temirova. Olmosh so'z turkumi haqida ba'zi mulohazalar.....	162
Sh Bobojonov. Ijodiy hamkorlik	165

Ma'lumki, toponimlarning lingvistik xususiyatlarini o'rganish tilshunoslikdagi ko'pgina masalalarni hal qilishda ilmiy va amaliy ahamiyatga ega [G'aniyev 2023:73-79].

Qiziltepa tumani joy nomlarini, ularning toponim, oykonim, gidronim, nekronim kabi mavzuiy guruhlariga bo'lasdan, hozirda mavjud qishloq fuqarolar yig'ini hamda mahalla fuqarolar yig'inlari kesimida joylashtirishni lozim topdik. Bu kabi tasnif, o'zining semantik-lisoniy, kognitiv, etimologik, lingvomadaniy hamda boshqa ilmiy parametrlarga javob berishi bilan ustunlikka ega. Masalan:

Arabon qishloq fuqarolar yig'iniga qarashli mahalla fuqarolar yig'inlari va boshqa toponimik obyektlar: Bu qishloq fuqarolar yig'inida 4 nomda mahallalar yig'inlari mavjud: Bular: *Xusbuddin, Demas, Konsurun, Gulbog'* mahalla fuqarolar yig'inlariga bo'linib, ular quyidagi qishloqlarni o'z ichiga oladi: *Qatag'on, Obiyovg'on, Xonobod, Oqburut, Demas, Chorbog', Arabon, Konsurun, Duobdurun, Suvg'on, Qo'lba, Gulbog', Olmazor* kabilar.

Arabon qishloq fuqarolar yig'iniga qarashli quyidagi qabristonlar va ziyoratgohlar mavjud: *Shayx Yodgor Konsuruniy, Hazrat Shayx Shodi, Childuxtaron, Gurgon Ato, Shakarlang, Demasiy ziyoratgohi, Taliqoshiq, Bobo Arslon, Chilmozor, Piri Piron, Xolboy tepa, G'oyib Ato, Mavlono Aloviddin Konsuruniy, Oqburut, Xusbuddin, Qatag'on, Demas, Chorbog'i Mahmud, Quyimozor, Abulqosim xo'ja*

Gurgato, Qo'lba, Duobdurun, Obiyovg'on qabristoni kabilar. Bu qabriston va ziyoratgohlar nomlari yuqorida tasnif etilgan qishloq va mahalla nomlariga o'xshashlikka ega bo'lib, transonimizatsiya asosida vujudga kelgan. Transonimizatsiya – bu atoqli otlarning boshqa onomastik turkumga o'tishi orqali yangi atoqli otlar hosil bo'lishining keng tarqalgan usullaridan biri. “Atoqli otning bir turkumdan ikkinchisiga yoki bir turkum ko'lamidagi o'tishi, qaysiki, hech bir shakl o'zgarishsiz, shuningdek, onimlar hosil bo'lishi usullaridan foydalanish orqali sodir bo'ladi”. [Яковенко 1996:74-83]

Amaldagi mavjud davlat ro'yxatiga kiritilmagan qadimiy qishloqlar nomlari mavjud: *Xo'jalar, Qo'ton, Arablar, Qirg'izon, Yuqori Xonzurun.*

Gidronimlar: *Arabi, Qatag'on, Demas, Chorbog', Konsurun, Quyimozor, Suvg'on, Maroch, Navgandi, Ro'zibiyon, Mullatosh* kabilar.

Toponimlar yasashda ko'proq geografik obyekt anglatuvchi, joyning relyefi, landshaftini ifodalovchi, umuman shu joyning tabiiy-geografik tavsifi bilan bog'liq so'zlarga ishtirok eta oladi. Umuman, geografik terminlar toponimik tizimda ishtirok etishi yoki etmasligi ularning obyektlarini farqlash, ba'zi xususiyatlarini konkretlashtira bilish va ifodalay olish xususiyati bilan bog'liqdir. Chunki mahalliy geografik terminlarning vujudga kelishi ham turli xil omillarga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nuritdinova R.S. O'zbek onomastikasi terminlarining lisoniy tahlili. – Avtoref. diss..filol.fanlari nomzodi. – Toshkent, 2006.
2. Begmatov E. Istiqlol o'lkasining toponimik siyosati. //O'zbek tili va adabiyoti. - 1997. №3. 3-9-bet; №4. 7-9-bet
3. Яковенко М.В. Абсолютная межвидовая трансонимизация // Восточноукраинский лингвистический сборник. Вып.2. – Донецк, 1996. – С.74-83
4. G'aniyev N. Toponimlar tarixiy, lingvistik va madaniy ma'lumotlar manbayi sifatida (Qiziltepa tumani joy nomlari misolida). Navoiy, 2023. 119-125-betlar.
5. G'aniyev N. Qiziltepa tumani joy nomlarining lingvo-onomastik tadqiqi. Navoiy, 2022. 73-79-betlar

Qodirjon MO'YDINOV,

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O'zbek tilshunosligi kafedrası dotsenti(PhD)*

YURIDIK TIL LEKSIKASINING MAVZUIY GURUHLARI

Annotatsiya: sistem leksikologiyada leksik-semantik guruhlar tarkibidagi lug'aviy birliklarni, ularning o'zaro mantiqiy munosabatini aniqlash masalasi o'zbek tilshunosligining muhim masalalaridan hisoblanadi. Yuridik til leksikasi tarkibidagi lug'aviy birliklarni ham muayyan mavzuiy guruhlariga ajratib o'rganish tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biridir.

Kalit so'zlar: *sistem leksikologiya, sinonimiya, antonimiya, giponimiya, partonimiya, gradunomiya, funksionimiya, ierarxonimiya.*

Annotation: in systematic lexicology, the issue of determining lexical units within lexical-semantic groups and their mutual logical relationship is one of the important issues of Uzbek linguistics. Studying the lexical units of the

legal language lexicon into specific thematic groups is one of the topical issues of linguistics.

Key words: *system lexicology, synonymy, antonymy, hyponymy, partonymy, gradunomy, functionymy, hierarchonymy.*

Аннотация: В систематической лексикологии вопрос определения лексических единиц внутри лексико-семантических групп и их взаимной логической связи является одним из важных вопросов узбекского языкознания. Изучение лексических единиц лексики юридического языка на конкретные тематические группы является одной из актуальных проблем языкознания.

Ключевые слова: *системная лексикология, синонимия, антонимия, гипонимия, партонимия, градуномия, функционалиция, иерархонимия.*

O'zbek tilshunosligida ham sistem leksikologiyani ilmiy o'rganish, leksik-semantik guruhlar tarkibidagi lug'aviy birliklarni, ularning o'zaro mantiqiy munosabatini aniqlash masalasida tilshunos olimlar H.Ne'matov va R.Rasulovlar qimmatli fikrlar bildirishgan[1,7]. Leksemalarning semantik aloqalari xilma-xildir: sinonimiya, antonimiya, giponimiya, partonimiya, gradunomiya va boshqalar.

Yuridik til leksikasi muayyan semantik maydon – sistema sifatida o'zbek tili lug'at tarkibida ham sifat, ham miqdor jihatdan muhim o'rinlardan birini egallaydi.

Yuridik til leksikasidagi “yuridik hujjatlar” tushunchasini anglatuvchi leksemalar o'zaro bir nechta gipero-giponimik aloqalarni hosil qiladi. Manbalarda “Giperonim jins belgisini bildirgan predmetning nomini ifodalovchi ko'pgina ma'nolarni semantik jihatdan umumlashtiruvchi mikrotizimning markaziy so'zi, dominantasi sifatida namoyon bo'luvchi lug'aviy birlik sifatida, giponim esa, ma'lum jins turlarining nomlarini ifodalovchi ko'pgina ma'nolarni semantik jihatdan giperonimga nisbatan boy bo'lgan lug'aviy birlik” sifatida sharhlanadi. Shunday ekan, qiyoslang, qaror (giperonim) – jinoyat ishi qo'zg'atishni rad qilish to'g'risida qaror – jinoyat ishini ish yurituvchiga olish haqida qaror – dastlabki tergovni tergovchilar guruhiga topshirish to'g'risida qaror – dastlabki tergovning tergovchilar guruhini ko'paytirish to'g'risida qaror – tergov guruhi tarkibini o'zgartirish to'g'risida qaror – jinoyat ishining tergovga tegishliligi bo'yicha yuborish to'g'risida qaror – tintuv o'tkazish haqida qaror – shaxsiy tintuv o'tkazish haqida qaror – ayblovni o'zgartirish to'g'risida qaror – jabrlanuvchini majburiy keltirish to'g'risida qaror – O'ZR nomidan hal qiluv qarori – qamoqqa olish to'g'risida qaror – sud-tibbiy ekspertizasi tayinlash haqida qaror va h. (giponimlar). Yana qiyoslang, bayonnoma (giperonim) – og'zaki arizani qabul qilish bayonnomasi – guvohni so'roq qilish haqida bayonnoma – jabrlanuvchini so'roq qilish haqida bayonnoma – yuzlashtirish bayonnomasi – shaxsni tanib olish uchun ko'rsatish haqida bayonnoma – olib qo'yish haqida bayonnoma – tintuv haqida bayonnoma – ayblanuvchini so'roq qilish bayonnomasi (giponimlar). Demak, murakkab semantik birlik bo'lgan qaror, bayonnoma giperonimlari umumiylik, jins sifatida muayyan giponimlar – xususiylik, turlar – semantik jihatdan turlicha bo'lgan birliklar orqali voqelanadi, sud amaliyotida xizmat qiladi.

Muayyan semantik maydonga birlashuvchi leksemalar umumiy va xususiy belgilariga ko'ra o'zaro birlashadi yoki ajralib turadi. Masalan, quyida berilgan so'zlar mazmuni, maqsadi va qo'llanishiga ko'ra o'zaro birlashsalar, joriylanishiga ko'ra ularning har biri alohidadir. “Ayni mana shu jihat so'zlarning tildagi daxlsizligini, xususiyligini ta'minlaydi va ularni muayyan paradigmalarga birlashtirish imkonini beradi.[3,12]

Giponimni giperonimlardan farqlovchi sema – bu ayni bir jinsga mansub jinoyatlarning amalga oshirilishiga ko'ra nomlovchi ma'nolaridir.

“Funksionimiya atamasi ostida denotatlarning o'zaro bir xil yoki yaqin vazifa bajarishi asosida hosil bo'lgan so'zlar qatori tushiniladi. Ma'lumki, denotatlarning faoliyatidagi bir xillik yoki o'zaro o'xshashlik ularning nomlarini ifodalovchi so'zlar orasida leksik-semantik aloqadorlikka asos bo'ladi.[2,21]

Yuridik til leksikasida uchraydigan funksionimik qator sifatida quyidagi so'zlar tizimini ko'rsatish mumkin: a) qamoq/qamoqxona, kamera, turma, koloniya, zona; b) oliy sud, xalq sudi, xo'jalik sudi va b.

Xullas, yuridik til leksikasi sifat (ma'no) jihatdan ancha murakkab, miqdor jihatdan esa “cheksiz” bo'lib, o'zbek tili lug'at tarkibida eng katta qatlamlardan birini hosil qiladi. Ushbu leksika xalq hayotining deyarli barcha yo'nalishlarini, sohalarini, jarayonlarini qamrab olishi bilan, shuningdek, o'zbek tilshunosligida shu kungacha monografik planda mutlaqo o'rganilmaganligi bilan ajralib turadi.

Foydaniilgan adabiyotlar

1. Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. –Т., Ўқитувчи, 1995.
2. Safarova R. Leksik-semantik munosabatning turlari. – Т., 1996.
3. Sobirov A.Sh. O'zbek tilining leksik sathini sistema sifatida tadqiq etish: Filol. Fanlari doktori diss...avtoref. – Т., 2005.
4. G'ulomova. G.Y. O'zbek yuridik terminologiyasining istiqloq davri taraqqiyoti: filol.fanlari nomzodi dis.... avtoref. – Т., 2005.